



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI  
O'ZBEKISTON TUMAN YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

151800, O'zbekiston tumani, Ziyokor ko'chasi, tel.: (998 73) 539 15 38,  
www.farg'ona.adliya.uz, el.pochta: uzbekiston.t-yurmarkaz@adliya.uz

2022 yil 11 mart

Yaypan shahri

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING  
QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RSIDA  
HUQUQIY XULOSA**

- 1. Loyihaning turi : Shartnoma.**
- 2. Loyihaning nomi: "Nomlanmagan"**
- 3. Loyihani ishlab chiqqan tashkilot: Tibbiyot birlashmasi.**
- 4. Loyiha yuzasidan ma'lumot:**

Tuman tibbiyot birlashmasi va O'zbekiston tuman Dezinfeksiya stansiyasi o'rtasida 11.03.2022 yilda tuzish reja qilingan 9643-sonli, shartnoma bahosi 12.999.438 so'm bo'lgan dezinfeksiya ishlarini amalga oshirish maqsadidagi shartnoma loyihasi ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5-moddasiga asosan yuridik shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan jismoniy shaxslar xo'jalik shartnomalarining subyektlari (tarafolari) bo'ladi.

O'zbekiston Repliblikasi Fuqarolik kodeksning 41-moddasiga ko'ra, yuridik shaxs o'zining ta'xis hujjatlarida nazarda tutilgan faoliyati maqsadlariga muvofiq fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'ladi.

Yuridik shaxsning huquq layoqati u tuzilgan paytdan boshlab vujudga keladi va uni tugatish yakunlangan paytdan e'tiboran tugatiladi.

Fuqarolik kodeksining 44-moddasi birinchi qismiga muvofiq yuridik shaxs qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar barchaning tanishib chiqishi uchun ochiq bo'lgan yuridik shaxslarning yagona davlat reyestriga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi www.stat.uz rasmiy sayti orqali olingan ma'lumotga ko'ra, Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani xo'jalik hisobidagi dezinfeksiya stansiyasi 01.01.1960 yilda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasi birinchi qismiga ko'ra, xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini,

yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda taraflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda taraflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonunchilikda belgilangan yoki taraflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak. Shartnoma loyihasida mazkur Qonun talablariga amal qilingan holda mazkur shartlar nazarda tutilgan.

Fuqarolik kodeksining 108-moddasiga asosan yuridik shaxslarning o'zaro bitimlari oddiy yozma shaklda tuzilishi belgilangan. Taqdim etilgan shartnomasi oddiy yozma shaklda tuzilgan. Shartnomaga shartnoma tuzish vakolati bo'lgan mansabdor shaxs tomonidan imzolanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasi birinchi qismiga muvofiq, xo'jalik shartnomalari ularni imzolashga tayyorlash jarayonida xo'jalik yurituvchi subyektlarning yuridik xizmati yoki jalb etilgan advokatlar tomonidan qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan tekshirib ko'rilishi kerak. Shartnomalarni ularning imzolarisiz tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

Taqdim etilgan hujjatlarni o'rgangan holda va yuqoridagilarga asosan:

### **XULOSA**

O'zbekiston tuman Tibbiyot birlashmasi va O'zbekiston tuman Dezinfeksiya stansiyasi o'rtasida 11.03.2022 yilda tuzish reja qilingan 9643-sonli, shartnoma bahosi 12.999.438 so'm bo'lgan dezinfeksiya ishlarini amalga oshirish maqsadidagi, shartnoma loyihasini tuzish O'zbekiston Respublikasining 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 5, 10, 21-moddalari, Fuqarolik kodeksining 41, 44 va 108-moddalari talablariga muvofiq deb hisoblanadi.

**O'zbekiston tuman YXKM**  
bosh yuriskonsul'ti



**B.Turg'unov**

Ушбу шартнома бир тарафдан келгусида «БУЮРТМАЧИ» деб номланувчи: Туман Тиббиёт бирлашмаси Рахбари **Х А Курбонов** изомига асосан фаолият олиб борувчи ва иккинчи томондан «ИШ БЕРУВЧИ» деб номланувчи Ўзбекистон туман Дезинфекция станцияси ва унинг бош врач: **А Отакулов** Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва амалдаги Уставига асосан фаолият курсатувчи қуйидагилар ҳақида ушбу шартнома тузилди.

**1. Шартноманинг мазмуни ва ҳажми**

1.1. “Буюртмачи” дезинфекция, дезинсекция, ва дератизация ишларини олиб боришни «Иш бажарувчи»га топширади. Иш бажарувчи топширилган ишларни уз зиммасига олади. **2022й учун шартнома**

№	Ишларнинг турлари	Улчов бирлиги	Иш ҳажми (М2)		Нархи (сум)(1м2)	Йиллик тулов суммаси
			Физик майдон	Оператив майдон		
1	Дезинфекция	М2	30300*3	90900	53,66	4877694
2	Дезинсекция	М2	30300*3	90900	53,66	4877694
3	Дератизация	М2	40500*3	121500	26,70	3244050
4						
5						
	ЖАМИ:					<b>12999438</b>

Шартноманинг умумий баҳоси: **Ун икки миллион туккиз юз туксон туккиз минг тўрт юз уттиз саккиз сум**

(Рақамлар ёзувлар билан)

1,2. “Иш бажарувчи” Иморатни, бинони, хоналарни, ховли санитария қурилмаларини ҳудуднинг бинолар қурилмаган қисмини ишлов бериш тартиби ва муҳлатини белгилайди.

1.3. “Буюртмачи” ҳашоратлар ва кемирувчиларга қарши қурашиш шартномасига барча қурилма майдонларни умумий фойдаланадиган асосий майдондан ташқари қушимча ер майдонларни фақат техник ҳолат хизмати курсатиш бюроси (БТИ) томондан берилган техник паспорт асосида белгилайди.

**2. “ШАРТНОМА ҚИЙМАТИ ВА ТУЛОВ ТАРТИБИ.**

2.1 Шартноманинг умумий қиймати **12999438** сумни ташкил этади.

2.2 Тулов ҳисобидан нақд пул ёки пул утказиш йули билан, айрим ҳолатларда эса икки томоннинг келишувига асосан эҳтиёж моллар билан туловни амалга оширадilar.

2.3 Тулов олдиндан бажарилаётган иш ҳажмининг 30% миқдорида утказиб бериллади.

**3. ТАРАФЛАРНИНГ ҲУКУК ВА МАЖБУРЯТЛАРИ**

“Буюртмачи”

3.1 Ишлов берилётган объектларни барча техник ҳафсизлиги чораларига амал қилинишини таъминлаш (уланадиган Дез моддага нисбатан) «Иш бажарувчи» талабига асосан дезинфекция тадбирларини утказиш учун объектларни ёпиш жадвалини топшириш.

3.2 “Буюртмачи” ва “Иш бажарувчи” томонидан бажарилган ишларнинг сифатсизлиги аниқланса 3 (уч) кун ичида “Иш бажарувчи”га рекламация билдириш.

3.3 Биноларга ишлов бериш учун уз вақтида ва сифатли тайёрлаш.

3.4 Хурақлар қуйиш учун зарур бўлган мосламаларни тайёрлаш.

3.5 Дератизация утказувчи шахслар учун ишлашга қулай шароит яратиб бериш.

3.6 Барча хоналарга кириш имконини ишлов беришни таъминлаш, уларни ёритиш электр ҳафсизлигини таъминлаш. Ер тулани сувдан тозалаш ва қуриштириш бошқа техник ҳафсизликни ва меҳнатни муҳофаза қилиш шароитини таъминлаш.

3.7 “Иш бажарувчи” профилактик дезинфекция ишларини олиб боришда Ўзбекистон Республикаси С С Вазирлиги томонидан рухсат этилган Дез моддаларни қуллашни.

3.8 Рухсат этилган ва амалиётда қулланилаётган ташкилий ва методик курсатма ва йуриқномаларга асосан ишлаш.

3.9 “Буюртмачи” га ишлаётган Дезмоддалар ҳақидаги эҳтиёт чораларини тушинтириш

3.10 “Буюртмачи” объектга кемирувчи ва хашоратларнинг кириб келишининг олдини олишлик мақсадида профилактик текширув ва ишлов беришни.

3.11 “Буюртмачи” томондан билдирилган рекламадан сунг уч кун ичида “Иш бажарувчи” уз хисобидан ишларни кайта бажариб бериш.

#### 4. Форс-Мажор холатлар

4.1 Томонлар уз иш вазифаларини бажариш жараёнида бирор бир тиббий ходиса руй берган такдирда Узбекистон Республикасининг бирор фавкулотдаги холат масаласи чакирилган фармон ва низомлари эълон килинганда, корхонада бирор ички авариялар булган холатларда ва шуларни бартараф этишда сарфланган кунлар хисобига вазифани бажариш шу кунга узайтиришни эътиборга олинади.

4.2 Агар Форс-Мажор 60-кундан зиёд давом этган такдирда томонлардан хар бири шартномада курсатилган мажбуриятларни бажаришни рад этиши мумкин. Бу холда томонлар бажарилган мажбуриятлар буйича узаро хисоб- китоб килишлари керак.

4.3 Форс-Мажор холати натижасида бир томонда ушбу шартнома мажбуриятларини бажариш мумкин булмаса киска муддат ичида иккинчи томонни форс-мажор холати пайдо булганлиги тугрисида хабардор килинади.

4.4 Форс- Мажор холатини тасдикланиши учун томонлар урнатган тартибда ваколатга эга булган давлат идораларидан керакли хужжатларни такдим этадилар.

4.5 Форс-Мажор пайдо булган холатда хар бир томон курган зарарлари учун факат узи жа

#### 5. Томонларнинг моддий жавобгарлиги

5.1 “Буюртмачи” «Иш юрүтүвчи» билан хар ойида бажарилган иш хажмига асосан тузилган Солиштирма далолатномага асосан туловни 10 кун муддат ичида амалга оширади, сунг кечиктирилган хар бир кун учун 0,4%микдорида жарима (пеня) тулайди.

5.2 “Иш бажарувчи» «Буюртмачи» томондан пул утказиб берилган кундан бошлаб 10 кун ичида ишни бажармаса хар бир кечиктирилган кун учун 0,4 % микдорида пеня тулайди.

5.3 Тарафлар пеня микдорини асосий карзнинг 50% дан ошмаган холда амалга оширадилар.

5.4 Тарафларнинг ушбу шартномада кузда тугилмаган бошка моддий жавобгарлиги Узбекистон Республикаси Фуқоралик кодекси ва Узбекистон Республикаси Хужалик юрүтүвчи субъектлар фаолиятининг шартномавий –хукукий базаси тугрисидаги конун билан тартибга солинади.

#### 6. Шартноманинг бошка шартлари

6.1 Тарафлар уртасидаги низолар узаро хал килинади, агарда узаро хал этилмаса Фаргона Вилоят Иктисодий суди оркали хал этилади.

6.2 Шартнома бир йил муддатга тузилади, агар томонларнинг бирортаси шартнома тугатилган ёки узайтириш хакида 1 (бир) ой олдин хабар килмаса шартнома яна бир йил узайтирилган саналади.

6.3 Шартнома томонларнинг имзоланган кунидан бошлаб кучга киради.

6.4 Шартнома икки нусхада тузилиб бир нусхаси «Иш бажарувчи» да иккинчи нусхаси эса «Буюртмачи»да сакланади.

6.5 Шартнома икки томонлама имзоланиб, газначилик бошкармаси (булимий)дан руйхатдан утказилгандан сунг конуний кучга киради.

6.6 Ушбу шартнома газначилик булимий томонидан руйхатдан утказилган кундан бошлаб юридик кучга кириб, икки нусхада тузилиб бир хил кучга эга.

Шартнома 31.03. 2022 йилдан 31.12. 2022 йилгача амал килади.

#### Томонларнинг хукукий манзиллари ва реквизитлари:

##### Иш бажарувчи:

«Дезинфекция станцияси»

Яйган шаҳар Туркистон 117 уй

Универсал банк Кукон фил

Х/р: 20210900400223321001

ИНН: 200188385

МФО: 00973

Рахбар:

Тел: 91 138 08 83

А.Отакулов

Хукукшунос:

Х Косимов

##### Буюртмачи:

Узбекистон туман Тиббиёт Бирлашмаси

100022860302307073101054003

Бюджетдан маблаг олувчи СТИР 200183112

ОКОНХ 91571

Газначилик булимаси номи: Узбекистон тумани

Молия Вазирлиги Газначилиги

Банк номи: Марказий банк Тошкент ш ХКММ

Х/р: 23402600300100001010

ИНН: 201122919

МФО: 00014

Рахбар: А. Гурбанов